



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ

Илимий-методикалық журнал



№ 3/1 2026



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



pedagogik muammolari

Ikramova M.X. Texnologiya fani bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini raqamli ta'lim resurslari orqali takomillashtirish usullari

Akbarova Z.Q. Korreksion mashg'ulotlarda sensomotor mashqlar tizimidan foydalanishning kompleks imkoniyatlari

Boltayev M.J. Geografiya ta'limida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-pedagogik asoslari

Ernazarova M.J. Integrativ ta'lim muhitida talabalarning qadriyaviy kompetensiyasini rivojlantirish omillari

Uzoqova M.A. Ta'lim jarayonida modellashtirish muammosining ilmiy-nazariy asoslari

Шарипова Ш. С. Мониторинг организации учебного процесса - эффективный путь повышения качества образования

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Alimova G.F. Madaniy-gumanistik ta'lim konsepsiyasining ilmiy manbalari

Hamroyev Sh. E., Alimardonova M.X. The pedagogical activity of Shahobiddin Marjoniy: practice and scholarly contribution in educational institutions

Hamroyev Sh. E., Alimardonova M.X. The life and scholarly path of Shahobiddin Marjoniy: a biographical and bibliographical analysis

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Ótepbergenov J.S. Informatika pánin oqítıwda project-based learning texnologiyasın engiziw

Djumabaev K.N., Utepbergenova G.X. Generativ sun'iy intellekt vositalarining oliy ta'lim tizimidagi imkoniyatlari va cheklovlari

Saxanova L. J. Kompyuter grafikasi mavzusini o'qitishda gamifikatsiya metodini qo'llash

Ikromov S.N. Silindrik koordinatalarda uch karrali integrallar asosida yer osti kon bo'shliqlarining matematik tavsifi

Ikromov S.N. Sferik simmetriyaga ega rudali konlarda uch o'lchamli integral yordamida massani aniqlash

Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlar talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi hamda ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, geografiya ta'limida amaliy mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. U nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyasini ta'minlab, talabalarda zarur kasbiy va ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, ularning metodik ta'minotini boyitish va ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish bugungi kun ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Safarov A., Qayumov A. Geografiya o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
7. Abdukarimov H. Tabiiy geografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019.
8. Вахрушев А.А. Методика преподавания географии. – Москва: Просвещение, 2016.
9. Joyce B., Weil M., Calhoun E. Models of Teaching. – Boston: Pearson Education, 2015.
10. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 2014.

INTEGRATIV TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING QADRIYAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Ernazarova M.J.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so'zlar: integrativ ta'lim, qadriyaviy kompetensiya, pedagogik fanlar integratsiyasi, refleksiya, kasbiy e'tiqod, metodik yondashuv, motivatsiya, pedagogik jarayon, kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy omillar.

Ключевые слова: интегративное образование, ценностная компетенция, интеграция педагогических дисциплин, рефлексия, профессиональные убеждения, методический подход, мотивация, педагогический процесс, компетентностный подход, социальные факторы.

Key words: integrative education, value-based competence, integration of pedagogical disciplines, reflection, professional beliefs, methodological approach, motivation, pedagogical process, competence-based approach, social factors.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada integrativ ta'lim muhiti sharoitida talabalarning qadriyaviy kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillar tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Pedagogik fanlar integratsiyasi asosida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va refleksiv yondashuvlarning uyg'unligi talabalarning kasbiy e'tiqodi hamda ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, qadriyaviy kompetensiyani rivojlantirishda mazmuniy, metodik, refleksiv, motivatsion va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье проведён научный анализ системы основных педагогических факторов, влияющих на развитие ценностной компетенции студентов в условиях интегративной образовательной среды. Обоснована роль интеграции педагогических дисциплин и синтеза личностно-ориентированного, компетентностного и рефлексивного подходов в формировании профессиональных убеждений и социальной ответственности обучающихся. Кроме того, раскрыта взаимосвязь содержательных, методических, рефлексивных, мотивационных и социальных факторов в развитии ценностной компетенции. На основе результатов исследования разработаны научно-методические рекомендации, направленные на совершенствование образовательного процесса.

SUMMARY:

This article provides a scientific analysis of the system of key pedagogical factors influencing the development of students' value-based competence in an integrative educational environment. The role of integrating pedagogical disciplines and combining student-centered, competence-based, and reflective approaches in shaping professional beliefs and social responsibility is substantiated. In addition, the interrelation of content-related, methodological, reflective, motivational, and social factors in the development of value-based competence is revealed. Based on the research findings, scientific and methodological recommendations aimed at improving the educational process have been developed.

Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni faqatgina nazariy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay, balki ularda kasbiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni anglash hamda pedagogik

faoliyatga ongli va mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishni ham taqozo etadi. Shu jihatdan, ta'lim jarayonida shaxsning ichki dunyosi, uning kasbiy e'tiqodi va qadriyatga asoslangan qarashlarini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, talabalarda qadriyat kompetensiyasini rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali faoliyat yuritishining muhim sharti sifatida qaraladi.

Bugungi globallashtirish va axborotlashuv jarayonlari ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim mazmunini yangilash, uni integrativ asosda tashkil etish hamda talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini kompleks tarzda ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, integrativ ta'lim muhiti pedagogik jarayonni samarali tashkil etishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Integrativ ta'lim muhiti turli fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali talabaning bilimlarini fragmentar emas, balki tizimli va yaxlit shaklda egallashiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv orqali talaba o'z bilimlarini turli kontekstlarda qo'llash, ularni umumlashtirish hamda yangi vaziyatlarga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada uning kasbiy tafakkuri, analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Shuningdek, integrativ yondashuv talabalarning qadriyatga asoslangan pozitsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida bilimlar nafaqat axborot sifatida, balki ma'naviy va kasbiy qadriyatlar bilan uyg'un holda o'zlashtiriladi. Bu esa talabaning refleksiv faoliyatini faollashtirib, uning o'z-o'zini anglash, baholash va rivojlantirish jarayonlarini jadallashtiradi.

Shu bois, integrativ ta'lim muhiti sharoitida talabalarning qadriyat kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, uning pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda samarali metodik yechimlarni taklif etish bugungi kun pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Integrativ ta'lim muhiti doirasida qadriyat kompetensiyasini rivojlantirish murakkab, ko'p bosqichli va ko'p komponentli pedagogik jarayon bo'lib, u turli omillar va shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida amalga oshadi. Mazkur jarayon talabaning nafaqat bilim darajasini, balki uning shaxsiy-kasbiy sifatlarini, qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, qadriyat kompetensiyasini rivojlantirishni tizimli va kompleks yondashuv asosida tashkil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, mazmuniy omil ushbu jarayonning asosiy tarkibiy unsurlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim mazmunining fanlararo integratsiya asosida tashkil etilishi, o'quv materiallarining qadriyatga yo'naltirilgan holda tanlanishi va tizimlashtirilishi talabalarda kasbga ongli, mas'uliyatli va ijtimoiy ahamiyatli munosabatni shakllantiradi. Mazmuniy uyg'unlik orqali talaba bilimlarni alohida fragmentlar sifatida emas, balki yaxlit tizim sifatida idrok etadi, bu esa uning kasbiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodik omil esa ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim

pedagogik omil hisoblanadi. Interfaol, muammoli, loyihaviy, evristik hamda hamkorlikka asoslangan o'qitish metodlarining qo'llanilishi talabani bilish faoliyatini faollashtirib, uni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqishga yo'naltiradi. Ayniqsa, muammoli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarda qadriyatlarga tayangan holda qaror qabul qilish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va o'z pozitsiyasini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Refleksiv omil qadriyat kompetensiyasining ichki mexanizmi sifatida alohida o'rin tutadi. Talabani o'z faoliyatini tahlil qilishi, o'z yutuq va kamchiliklarini anglab yetishi hamda o'z ustida ishlashga intilishi refleksiv jarayon orqali amalga oshadi. Refleksiya bu yerda faqat tahlil vositasi emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lib, talabani o'zini o'zi boshqarish va o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantiradi.

Motivatsion omil talabani kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyojini, qiziqishini va intilishini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ijobiy pedagogik muhit, rag'batlantirish, muvaffaqiyatga yo'naltirilgan yondashuv hamda individual qo'llab-quvvatlash tizimi talabani faolligini oshiradi va uning kasbiy rivojlanishiga turtki beradi. Motivatsiyaning yuqori darajada shakllanishi esa talabani o'z faoliyatiga ongli va mas'uliyatli yondashuvini ta'minlaydi.

Kommunikativ omil ta'lim jarayonida muloqot va hamkorlik faoliyati orqali amalga oshadi. Talabalar o'zaro fikr almashish, muhokama qilish va birgalikda qaror qabul qilish jarayonida ijtimoiy, axloqiy va kasbiy qadriyatlarni o'zlashtiradilar. Bunday muloqot muhiti talabalarda bag'rikenglik, hurmat, ijtimoiy faollik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsion omil zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali talabalar axborotni izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash va undan oqilona foydalanish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning zamonaviy bilim va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Nihoyat, ijtimoiy-madaniy omil orqali talaba milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi asosida shakllanadi. Ushbu omil talabani shaxs sifatida kamol topishida, uning ijtimoiy muhitga moslashuvi va kasbiy faoliyatga ongli yondashuvini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning o'zlashtirilishi talabani ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan omillar o'zaro integratsiyada yagona pedagogik tizimni tashkil etib, talabani shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga kompleks va tizimli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar uyg'unligi integrativ ta'lim muhiti sharoitida qadriyat kompetensiyasini samarali rivojlantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ ta'lim muhiti talabalarning qadriyat kompetensiyasini rivojlantirishning samarali pedagogik sharti sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik fanlar integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabani nafaqat nazariy bilimlarini boyitadi, balki uning kasbiy e'tiqodi, qadriyatga asoslangan

dunyoqarashi hamda pedagogik faoliyatga ongli va mas'uliyatli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa bo'lajak mutaxassisning kasbiy yetukligi va ijtimoiy faol pozitsiyasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda refleksiv faoliyat, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu yondashuvlar orqali talabanning o'z-o'zini anglash, mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish hamda uni takomillashtirish qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada, u nafaqat bilimli, balki o'z kasbiga nisbatan mas'uliyatli, ijodiy va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanadi.

Shu bilan birga, integrativ ta'lim muhiti doirasida qadriyat kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini tizimli tashkil etish, uni metodik jihatdan boyitish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv ta'lim sifatini oshirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda shakllantirish imkonini beradi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda integrativ ta'lim muhiti asosida qadriyat kompetensiyasini rivojlantirishning yanada takomillashtirilgan modellari va texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish hamda samaradorligini eksperimental asosda aniqlash muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifat ko'rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
5. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
7. Xo'jaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
8. Вахрушев А.А. Педагогика и методика обучения. – Москва: Просвещение, 2016.
9. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 2014.
10. Joyce B., Weil M., Calhoun E. Models of Teaching. – Boston: Pearson Education, 2015.